



## DEVELOPING STUDENT'S QUALITIES OF TOLERANCE IN HIGHER EDUCATION

Isayeva Manzura Rahmonberdiyeva<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Master of Samarkand State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4898021>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> May 2021

Accepted: 25<sup>th</sup> May 2021

Online: 30<sup>th</sup> May 2021

### KEY WORDS

Tolerance, Uzbek tolerance, future generation, harmoniously developed person, independent state, skilled educator, open lesson, Renaissance, universal values, traditions, generosity, hospitality, mutual respect, treatment, development, civil society .

### ABSTRACT

*This article contains suggestions and comments on the formation of tolerance in young people who are the future of our country in higher education. Why exactly in student youth? These students are on the verge of a great life, on the verge of becoming parents tomorrow. One of the biggest tasks of our educators is to teach them to distinguish between black and white, to have a place in society, to interact with others, and thus to inculcate Uzbek tolerance in their blood. At the heart of this is the development of the country, the development of the country's future.*

## OLIV TA'LIMDA O'QUVCHILARNING TOLERANTLIKNI SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Isayeva Manzura Rahmonberdiyeva<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Samarqand davlat universiteti magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021

Ma'qullandi: 25-May 2021

Chop etildi: 30-May 2021

### KALIT SO'ZLAR

Bag'rikenglik, o'zbekona tolerantlik, kelajak avlod, barkamol shaxs, mustaqil davlat, mohir pedagog, ochiq dars, Renessans, umuminsoniy qadriyat, urf-odat, saxiylik, mehmondo'stlik, o'zaro hurmat, muomala, rivojlanish, fuqarolik jamiyati.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola oliy ta'lim jarayonida yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarda tolerantlik sifatlarini shakllantirish borasidagi taklif va mulohazalardan iborat. Nega aynan talaba yoshlarda? Ayni talaba yoshlar katta hayot ostonasida turgan, ertangi kunda ota yoki ona bo'lish arafasidagi yoshlar. Ularga oq va qorani ajratishni o'rgatish, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish, o'zgalar bilan munosabatga kirishish va bu orqali o'zbekona tolerantlikni qon-qoniga singdirish biz pedagoglarning eng katta vazifalarimizdan biri. Bularning tag zamirida vatan ravnaqi, yurt kelajagini rivojlantirish yotadi.*



Kelajagini o'ylagan har qanday davlat, avvalo, yoshlarga – kelajak avlodga e'tibor qaratadi. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini” sifatida yosh avlodni yuksak qadrlab, ishonch bildiradilar. “Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz”. Yurtboshimizning nutqlaridan ham bilish mumkinki, ta'limning har bir sohasi yetuk, barkamol shaxs tarbiyalashdir. Oliy ta'lim muassasalarida pedagoglarning faoliyati ham ayni yuqoridagi gapimiz isbotidir. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida, avvalo, yoshlarning tolerantlik tafakkurini shakllantirish orqali boshqa yutuqlarga erishish ham mumkin. O'zbek xalqi azal-azaldan tolerantlik tuyg'ulariga boy millat hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov takidlaganlaridek: “Ota- bobolarimiz necha asrlar moboynda shu bepayon mintaqada qanday hamjixat bo'lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, tarix va hayot qadrini tabiatning o'zi bizni-butun O'rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da'vat etmoqda. ”Haqiqatdan ham mintaqamizda millatlar va xalqlar o'rtasida hamjihatlik barqarorlik rivojlanib borganligi bois, ular o'rtasidagi munosabatlardagi bag'rikenglik qadriyat darajasida mustahkamlanib bormoqda. Hozirgi davrda millatlarning o'zligini anglashga o'z manfaatlarini himoya qilishga, urf-odat, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolish hamda ularni dunyo xalqlari o'rtasida ommalashtirishga qaratilgan harakat kuchayib bormoqda. Bu jarayon o'z navbatida turli milliy va xalqlar o'rtasida o'zligini himoya qilishga bo'lgan intilishlarida tolerantlik tuyg'ularini tobora takomillashib borishini taqozo qiladi. Tolerantlik

umuminsoniy qadriyatlar tizimida alohida o'ringa egadir. Yoshlarda tolerantlik sifatlarini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarining ham o'rni katta. Katta hayot ostonasida turgan, o'z hayot yo'lini erkin belgila olaydigan yoshdagi farzandlar ayni oliy ta'lim bosqichida turadilar. Ular oq va qorani ajratish, jamiyatga qo'shila olish, unda o'z o'rniga ega bo'lish, boshqalar bilan aloqaga kirishish, o'zgalarni hurmat qilish, muomala madaniyati kabi sifatlarini shakllantirish suv va havo kabi zarur. Bularning tag zamiri eng asosiy sifatlardan biri – tolerantlik, uni shakllantirishdadir. Bu oddiy oldi-qochdi, balandparvoz gaplar emas. Har qanday jamiyatda o'z o'rnini topmoqchi bo'lgan inson, istaydimi-yo'qmi odamlar bilan aloqaga kirishadi. Ular bilan muomala qiladi. Jamiyatning bir qismi sifatida harakatlanadi. Tolerantlikni yoshlar faoliyati bilan bog'lab o'rganishga harakat qilgan Z.R.Qodirova, A.J.SHaripov, V.Alimasov, E.Karimova birgalikda yozgan kitoblarida quyidagi ta'rifni berganlar: “Tolerantlik- bu xilma-xillikdagi uyg'unlikdir. Bu jahon madaniyatining xilma-xilligi, o'zligimizni namoyon qilish shakllari va insoniy fazilatlarini ifodalash usullariga hurmat va uni qabul qilishdir” O'quvchilarda tolerantlik sifatlarini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'zni juda kattadir. Muhim sanalarga bag'ishlangan tadbirlar o'quvchilarni tolerantlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tolerantlik umuminsoniy qadriyatlar tizimida alohida o'ringa ega bo'lib, uning millatlararo diniy konfessiyalararo va insonlararo qadriyatlar sifatida amalga oshirish millatlar taraqqiyotiga xizmat qiladi. Chunki turli manfaatlarga ega bo'lgan millat, elat va xalqlar o'rtasida o'zaro jipslilik samimiylilik va do'stona munosabatlarga amal qilinsagina yuzaga keladigan har qanday muammolarni hal qilishi mumkin. Ana shu ma'noda ham



oliy ta'lim muassasalari o'quvchilarida tolerantlik sifatlarini rivojlantirish, mustahkamlash, bir tomondan millatlarning o'zaro totuvlikda yashashlariga, ularning yuzga keladigan muammolarini hamjihatlikda hal qilishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Ikkinchi tomondan, umuminsoniy qadriyatlarining tobora ommoviylashib borishiga xizmat qiladi O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillari umummilliy ma'daniyati bilan bir qatorda, o'zlarining milliy ongiga xos ma'daniyatlar mazmun mohiyatini rivojlantirib borish imkoniyatiga ham egadir. O'zbekona tolerantlik, Vatan tushunchasi o'zi fuqarosi hisoblangan mamlakatga taalluqli ekanligini unutmastikdan iborat bo'lib, mahalliychilik, oliya, qarindosh-urug' manfaatlarini xalq va millat manfaatlaridan ortiq bilish, ularni bir-biriga zid qo'yish, ma'naviy nokastlik nishonalaridandir. Tolerantlik yo'nalishiga ko'ra Vatan tushunchasi mamlakat, milliy davlat bilan tengligi, ona zamin va millatlarning millat tushunchasi asosida uyg'unlashishidir. Millat tuyg'usi, undan manfaatini seza olmagan insonda o'z oilasi tug'ilib o'sgan shahar, qishlog'iga intilish bo'lishi mumkin. Lekin u keng ma'nodagi Vatan bo'lmaydi, fidoiylilik darajasidagi Vatan tuyg'usi unga yod bo'ladi, chunki u faqat o'z manfaatini ko'zlab, xalqi, Vatani manfaatlarini chetlab o'tadi. Vatan turli xalqlar elatlar umumlashgan diyori sifatida bu yerda yashovchi har bir shaxsning, har bir millarning qon qoniga singib ketgan tuyg'u bo'lib, uni sevishtga ehtiyoj tug'diradi. Bu yerda shaxs vujudga keladi, ma'naviy kamolot, yuksak ma'sulyat hissi shakllanib, o'z manfaatlarini xalqi, Vatanni manfaatlari bilan uyg'unlashitirishga qaratilgan tolerantlik yo'nalishlari kengayib, umumlashib boradi. Ertangi kunda ota yoki ona bo'lish arafasida turgan bu yoshlarda tolerantlik sifatlarini ularning o'z atrofida bo'layotgan kichik-

kichik hayotiy lavhalar bilan, ularni sharxlash bilan tushuntirib berish mumkin. Masalan, bitta patokda to'rtta guruh bor. Guruhlarga avval kichik muammoga ega vaziyat beriladi. Bu vaziyat oila misolida, keyin mahalla, so'ngra davlat va nihoyat millat va xalq misolida ko'rib chiqiladi. Shunda yoshlarda tolerantlik-bag'rikenglik mohiyati anglashinib boriladi. Guruhlardagi o'quvchilarning tolerantlik sifatleri ya'ni saxiylik, mehmondo'stlik, mehr-oqibatligi, murosaliq, hamfikrlik, millatlararo totuvligi tahlil qilindi. Faoliyatni o'rganish davomida ma'lum bo'ladiki, o'quvchilarning tolerantlik sifatlarini shakllantirish jarayonida bir qator tortishuvlar, muammolar yuzaga keladi. Bu muammolarni ham o'qituvchi pedagog kuzatuv ostida talabalar o'zlari yechim izlaydi. Bir-birini tinglashi, hurmat qilishi, odilona fikrlashi, o'z galar manfaatini ham o'ylashi pedagog tomonidan kuzatilib, dars so'ngida e'lon qilinadi. Bunday ochiq darslarni bitta guruh, yoki bir necha guruhlar miqyosida qilish mumkin. Muhimi darsni boshqarayotgan pedagog talaba yoshlarning fikrlarini to'g'ri yo'lga solishi, ularning dunyoqarashlarini dunyoviy va diniy bilimlar bilan o'stirishi, sharxlashi va boyitishi lozim. Zero, bir soatlik bilim bir umrga tatigulik dars bo'ladi. Darsda olgan saboqlarini ertangi kunda tatbiq eta olsin. Fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida shaxs, millat va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida tolerantlikni rivojlantirib borishni talab qiladi. Chunki tolerantlik insonlar millatlar, ijtimoiy guruhlar, shaxslar va turli diniy e'tiqodlardagi kishilarni bir-biri bilan bog'lab, ular o'rtasidagi munosabatlarda do'stona munosabatning yuzaga kelishi va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi. 2020.26-dekabr.
2. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot pirovard maqsadimiz.T."O'zbekiston",2000
3. Karimov I.A. "Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz". T. "O'zbekiston" 2001.
4. Bag'rikenglik tamoyillari Dekloratsiyasi YUNESKO bosh konferensiyasining 28-sessiyasida qabul qilingan YUNESKO, 1999
5. Karimova E. O'zbek tolerantligi – T.: "Aloqachi", 2005.
6. Karimova V. Oila va jamiyat Ta'lim tizimida ijtimoiy –gumanitar fanlar. 3-son 2007.
7. O'zbekistonda tolerantlik jarayoni. M. Xajiyeva. "ABU Matbuot Konsalt" T.: 2008.